KASBGA YO'NALTIRILGAN CHET TILLARNI O‘QITISH MAQSAD VA VAZIFALARI

Khazratova Kunduz Mamaraimovna, *English teacher of the Uzbekistan State World Languages University, TTU Tashkent*

Abstract. The article is devoted to the issues of using the possibilities of a foreign language in the educational process, the tasks of professionally oriented teaching of foreign languages are considered. The analysis of the methodological literature on this issue shows that there is an increased interest in the methods of teaching communication activities, the formation of listening and speaking skills in students.

Key words: foreign language, teaching methods, using modern technology, interactive learning methods

Annotatsiya. Maqolada ta'lim jarayonida chet tili imkoniyatlaridan o'quv jarayonida foydalanish masalalari, kasbga yo'naltirilgan chet tillarni o'qitish vazifalari ko'rib chiqiladi. Ushbu masala bo'yicha uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, kommunikativ faoliyatni o'qitish usullariga qiziqish ortib bormoqda, talabalarning tinglash va gapirish qobiliyatlarini shakllantirish zarur.

Kalit so'zlar: chet tili, o'qitish usullari, zamonaviy texnologiyalar, interfaol ta'lim usullari

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin tarixan qisqa vaqt ichida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy - ma'rifiy sohalarda katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Jamiyat hayotining barcha jabhalarida asta-sekin amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, ma'naviy hayot sohasida yaqqol namoyon bo'la boshladi. Bunday yangilanishlardan biri "Yangi O'zbekiston - yangicha dunyoqarash" shiori ostida amalga oshirilmoqda.

"Vujudimizda, qonimizda ajdodlarimizdan meros buyuk qudrat jo'sh urayotgan ekan, biz ezgu orzu va maqsadimiz bo'lmish yangi O'zbekistonni albatta bunyod etamiz.

O'zbekiston har tomonlama obod va farovon, erkin demokratik mamlakatga



aylanadi"1 --deb ta'kidlaydi mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev o'z ma'ruzasida. Zamondoshlarimizning ongu dunyoqarashi, hayot tarzi, o'y-maqsad va intilishlari kechagi kun odamlaridan butkul farq qiladi.

Mamlakatimizda ro'y bergan va berayotgan yangilanishlar, qo'lga kiritilayotgan havas qilgulik yutuqlar zamirida xalqimizning hayotga, mehnatga, Vatanga muhabbati, g'ayrati, shashtu shijoati mujassam.

Bugungi kunda yosh avlodni "chin ma'noda jahon bilan bahslashadigan o'ktam, dili va tilidan odamlar ozor chekmaydigan, sharqona odob-axloqli, ammo haqqini birovga bermaydigan, ham jisman, ham aqlan va ham ruhan sog'lom, bardam qilib tarbiyalash" 1 . zamonaviy pedagog oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyishtaligini barqaror bo'lishi uchun respublikamizning har bir fuqarosi o'z hissasini qo'shishi ularning eng birinchi navbatdagi burchi ekanligini ongiga singdirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. "Ta'lim-tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi".

Bugungi zamonaviy globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovasion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovasion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lishdek hayotiy talablarni qo'yilmoqda.

Bu talablar yosh avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor vazifalar, asosiy maqsad va yo'nalishlarni belgilab beradi.

Chet tillarini o'rganishga bo'lgan e'tiborning oshishi oliy ta'lim muassasalari pedagoglari, filologlari, tarjimon kadrlari oldiga har tomonlama etuk avlodni tarbiyalab voyaga etkazish, xorijiy tillarni chuqur o'rganish, chet tillarini qiyosiy



o'rganish, ona tili va qiyoslanayotgan tilning lisoniy xususiyatlarini tahlil etish, ularning innovasion pedagogik texnologiyasini va metodikasini yaratish kabi masalalarni hal qilish vazifalarni qo'yadi.

Mamlakatimizda chet tillarni o'qitishni rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish, o'quvchi yoshlarning chet tillarni o'rganish bo'yicha ko'nikma va malakalarini oshirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Chet tillarni chuqur o'rganish o'quvchi-yoshlarning zamonaviy bilimga ega bo'lishi va professional ko'nikmalarni egallashining asosiy omili va sharti hisoblanadi.

Ayni paytda chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilishi, bugungi dunyoda ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalar yangiliklar va o'zgarishlardan atroflicha xabardor bo'lishi, jahondagi ulkan intellektual bilimni egallash uchun imkoniyatlar yaratilmoqda. Davlat tili bilan bir qatorda jahonning rivojlangan mamlakatlar tillarini o'rganish, muloqot qilish va ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun yanada shartsharoitlar yuzaga kelmoqda.

Bugungi kunda chet tillarni o'rganishga bo'lgan e'tiborning oshishi oliy ta'lim muassasalari pedagoglari, filologlari, ingliz tili o'qituvchilari, tarjimon kadrlari oldiga har tomonlama etuk avlodni tarbiyalab voyaga etkazish, xorijiy tillarni chuqur o'rganish vazifalarini, chet tillarni qiyosiy o'rganish, ona tili va qiyoslanayotgan tilning lisoniy xususiyatlarini tahlil etish, ularning innovasion pedagogik texnologiyasini va metodikasini yaratish vazifasini qo'ymoqda.

Til millatlararo aloqa vositasi bo'lib, xalqlar o'rtasida ijtimoiy iqtisodiy, madaniyatlararo munosabatlarni shakllantirish asnosida boshqa tillarga murojaat etish va o'rganish ham kuchaymoqda. Boshqa tillarni o'rganish esa o'sha xalqning madaniyatini o'rganish, tabir joiz bo'lsa his qilish imkonini beradi.

Xorijiy tilni o‘qitishdan maqsad – talabalarda ta’lim standartida, oliy ta’lim, bakalavr darajasi uchun belgilangan meyorlar buyicha til ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishdir. Ommaviy va kasbga oid barcha amaliy muloqotlarni chet tilida erkin olib bora oladigan mutaxassislarni yetkazib chiqarishda, talabalarda chet tili orqali keng dunyoqarash, vatanparvarlik, global va konstruktiv fikrlash



tushunchalarini rivojlantirish juda muhim hisoblanadi.

Ushbu fanning vazifasida esa - chet tilini o‘qitish amaliyotida talabalar nutqiy qobiliyatini rivojlantirishda o‘qish, yozish, tinglash, gapirish ko‘nikmasini shaklantirish, chet tilida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish orqali umumnutqiy va umumta’limiy bilimlar to‘la o‘zlashtiriladi.

Shunungdek, amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar xam e’tibor markazida bo’lmog’i lozim. Amaliy mashg‘ulotlar multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada faol va interfaol usullar yordamida o‘tilishi, mashg‘ulot jarayonida mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular sohaga yo’naltirilganligi diqqatga sazovordir. Masalan jurnalistika, axborot xizmati yo’nalishlari uchun: Interviewing. News programs. News programs, channels and broadcasting system. What is news? Types of news. Avoiding plagiarism. Referencing, paraphrasing and summarizing Developing critical thinking through independent learning. A brief history of journalism kabi mavzular juda interfaoldir.

Fanni o‘qitish jarayonida talaba interfaol usullar vositasida mustaqil ta’lim olishga rag‘batlantiriladi va ulardan o‘z fikrini o‘rganilayotgan chet tilida bayon qilish talab qilinadi. Talabadan fan bo‘yicha mustaqil o‘rgangan bilimlarini auditoriyada turli xil interaktiv uslublar orqali namoyish qila olishi va boshqalarga o‘rgata olishi talab etiladi.

Ta’lim natijalari yoki kasbiy kompetensiyalar doirasida talaba bilishi kerak bo’lgan faoliyat bu, ko‘p madaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun chet tilida kommunikativ kompetensiyaga ega bo‘lish; til materiali (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglash, gapirish, o‘qish va yozish) bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirish, biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlay bilish; autentik nutqning milliy xususiyatlarini: o‘zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlari,



qadriyatlari, marosimlari va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarni bilish hamda tili o‘rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini shakllantirish; o‘rganilayotgan chet tilida kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo‘lganda takroran so‘rash, uzr so‘rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyatini shakllantirish, og‘zaki yoki yozma nutqda fikrlarni tegishli til vositalari orqali ifodalashni bilish, og‘zaki yoki yozma nutqdagi izchillikni ta’minlashda lingvistik signallarni tushunish va interpretatsiya qilish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishdan iboratdir.

Bunda ta’lim texnologiyalari va metodlari: aqliy hujum, interfaol suhbat, keys-stadilar, bahs-munozara, muammoli vaziyat, xayoliy xarita, guruhlarda ishlash, yo‘naltiruvchi matn, tushunchalar tahlili ma’qul deb o’ylayman.

Talabalar kreditlarni olishi uchun qo’yiladigan talablar esa chet tili faniga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirishlari zarurdir.

Shu bilan birgalikda yana bir boshqa fan misolida, ya’ni, nutq madaniyati va notiqlik san’ati fanining mazmuni va uni o’qitishdan maqsad – nutq madaniyati va notiqlik san’atining o‘zaro aloqasi, nutq faoliiyati, nutq xosil bo‘lishining o‘ziga xos shartlari, fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, notiqlikning ijtimoiy missiyasi, tabiati, shakllanishi, taraqqiyoti, tavsif va tasnifi haqida ma’lumot berish va uning taraqqiyot dinamikasi, shuningdek, nazariy masalalari bilan tanishtirishdan, shu nazariy masalalar asosida talabalarda nutqni tahlil qilish, ommaga ta’sir etishga erishish maqsadida ritorika texnikasi tizimidan oqilona foydalanish; bahs yuritish madaniyati qoidalari haqidagi bilimlar bilan qurollantirish, talabalarda olingan bilimlarni amalda qo’llay olish malakasini shakillantirishni ko’rib chiqamiz. Fanning vazifasini kengroq yoritadigan bo’lsak – talabalarda mazkur fan bo‘yicha boshlang‘ich bilimlarni shakllantirish, nutq madaniyati, meyoriy va kommunikativ



muloqot shakllarini; nutq yuritish qoidalariga muvofiq matn tuzishni, - “fikr-so‘z-faoliyat” munosabatlari mazmunini izohlab berish muhimdir.

Tinglovchi va so‘zlovchi uchun kerakli bo‘lgan umumiy qoidalarni, ommaviy nutq matni mazmuni ustida ishlashni, notiqlik san’ati tarixi, mavzuni tanlash, nutqning ijtimoiy tabiati, uning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan ijtimoiysiyosiy muhit, uning turlari, shakllari, unda ishlatiladigan terminlarni o‘zlashtirish va mazkur fanga aloqador nazariy masalalarning hal qilinishi va yoritilishiga ilmiy yondashuvni kuchaytirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Asosiy fan tarkibiga quyidagi mavzularni kiritish o’rinlidir: Notiqlik san’ati tarixi. Notiqlik tarixi va nazariyasi. Notiqlik san’atini yuzaga keltirgan omillar, sharoit, ehtiyojlar va boshqalar.

Uning fan sifatida shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hisoblanib, notiqlik tarixi fanining tarix, falsafa, badiiy adabiyot, folklor, psixologiya, tilshunoslik bilan aloqasi xam muhimdir.

Notiqlik san’ati tarixi. Sharq notiqlik san’ati Valad, Jaloliddin Rumiylarning hissasi xaqida ma’lumot beriladi.

Kaykovus va uning “Qobusnoma” asarida notiqlik masalalari mavzusida “Qobusnoma”ning “Suxandonlik bila baland martabali bo‘lmoq zikrida” bobida notiqning axloqiy fazilatlari — rostgo‘ylik, samimiylik, oqillik, andishalilik va kamtarlik va boshqalar haqida. Alisher Navoiyning nutq, notiq va notiqlik haqidagi qarashlari haqida, Alisher Navoiy “Mahbub-ul qulub” asarida qasidaxonlar, Sharq harbiy san’atida notiqlikka bo‘lgan jiddiy e’tiborni xam ko’rish mumkin. Z.M.Bobur - sharq harbiy notiqlarining eng buyuk namoyandalaridan biri bo’lib, Bobur notiqligi haqida Gulbadanbegim fikrlarini yoritish mumkin. Nutq madaniyatining zamonaviy konsepsiyasida esa me’yor tushunchasi, adabiy til meyori adabiy tilning meyorlarini bilish hamda leksik darajada (so‘zning aniq tanlanishi), so‘zlashish 4 darajasida (fonetika, mazmun va hissiyotlarga oid ohanglar, tovush ohangi), grammatik jihatdan (morfologiya va sintaksisda), morfemali va so‘z yasash darajalarida ularni muloqot amaliyotida qo’llashdan



iboratdir.

Ritorikada odob, nutq etiketini funksional-semantik universalligi, nutqiy etiketning amalga oshirilishi muayyan mintaqa yoki jamiyatning nutqiy xulqiga xos xususiyatlar, muloqot qoidalari, an’ana va urf-odatlarining xususiyatlarini hisobga olish juda muhimdir.

Ta'lim jarayonida kasbiy kompetensiyalar doirasida talaba bilishi zarur bo’lgan - notiqlik san’ati asoslari; - notiqlik tarixi;- nutq madaniyatining zamonaviy konsepsiyasi to’g’risida yetarli darajada nazariy bilimlarga ega bo’lishi; mavzuni tanlash, matn va uning kompozitsiyasini tuzishni. - o‘z nutqini auditoriyaga taqdim etishni; - muloqot madaniyati xaqida ma’lumotlarni bilishi va ulardan foydalana olishi; - muloqot qobiliyatini o‘stirish maqsadida ritorik bilimlarni o‘zlashtirish; − kasbga doir muloqot vaziyatda to‘g‘ri qaror chiqarish, kommunikativ strategiya va taktikani muloqot paytida aniq belgilash borasida amaliy ko’nikmalarni egallashi; − omma oldida nutq so‘zlashda lingvistik va ekstralingvistik vositalardan unumli foydalanish malakalarini egallashi lozim.

Nofilologik yo'nalishlarda mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o'qitish amaliyoti jadal amalga oshirilmoqda. Talabalar va professor o'qituvchilarimiz chet tillarni bilish darajasiga, ya'ni xalqaro 4 va milliy kvalifikasiya sertifikatlari, jumladan, IELTS, SEFR, APTIS sertifikatlarini olishga alohida e'tibor qaratishgan. Bundan tashqari, biz xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish orqali chet tillarni o'rganish va o'qitishda ilg'or xorijiy tajribalarni amalda qo'llash, talaba va o'qituvchilar almashinuvi doirasida ilmiy salohiyatni oshirishga ham harakat qilmoqdamiz. Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida chet tillarni chuqurlashtirib o'rgatish metodikasini yanada takomillashtirish bilan birga chet tillarni ona tili bilan qiyoslab, chog'ishtirib ilmiy o'rganish, ilmiy xulosalar chiqarish, til o'rganish metodikasini yanada takomillashtirish davr talabiga aylanmoqda. O'ylaymanki, ushbu xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda ham shu dolzarb masalalar muhokamaga tortiladi va muayyan echimini topishga turtki bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:



1. Mirziyoev Sh.M. "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 31.08.2021.

2. Mirziyoev Sh.M "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi". Toshkent 2017 y. 1516

3. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. -T.: "Fan", 1994

4.Nisk Seramella and Elizabeth Lee. Cambridge English for The media. Cambridge university Press 2008

5.Gill Branston with Roy Stafford. The Media Student's Book. Fifth edition. Routledge 2010 8

6.S.G.Nyashina. English for journalists. Journalism as a profession. Minsk BGU 2008.

7.Bruce Grundy, Martin Hirst, Janine Little, Mark Hayes, Greg Treadwell. So you want to be a Journalist?. Cambridge University Press, 2012

8.21 st Senture Communication. A reference handbook. A sage reference publication. William F.Eadie 2009.

9.Bekmirzaev N. Notiqlik asoslari. T., 2006.

10. Sitseron notiqlik san'ati haqida ikki risola. T., 2007

Axborot manbalari

1. www.fledu.uz

2. www.learnenglish.britishcouncil.org